

## NAVOIYNING NASRIY ASARLARIDA QO'LLANILGAN SHE'RIY SAN'ATLAR

Gulinur Tursunpulatova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti ta'limi yo'nalishi

3-kurs talabasi

Shaxnoza Muxtarova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasini o'qituvchisi

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning tarix, tasavvuf, din tarixiga oid prozaik asarlarida uning ilmiy va falsafiy qarashlari o'z aksini topgandir. Bu turkumdag'i asarlarning har qaysisining o'ziga xos yo'nalishi va ahamiyati, xususiyatlaridan tashqari ularni birlashtirib turuvchi jihatlari hamda Navoiy g'azallarini o'tishda interfaol usullar haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Lug'z, Tarjiband, Tamsil san'ati, qit'a, fard, Nafohat ul uns.

Istiqlol davrida ulug' Alisher Navoiy merosini ,uning tarixiy ,adabiy ,falsafi, diniy-axloqiy qarash va g'oyalarini asl holicha ,shoir yaratganidek tarzda tadqiq qilish va o'qitish- o'rganish zarur. Navoiy asarlari badiyatini o'rganish masalasi esa dolzarb masalalardandir. Shuningdek ,shoir adabiy merosi umumiyligi hajmining aniq miqdorini aniqlash ham nihoyatda zarur hisoblanadi. Ma'lumki, "Xazoyin ul – maoniy "kulliyotida Navoiyning 2600 g'azal, 210 qit'a, 13 chiston, 10 lug'z, 86 fard, 133 ruboiy, 52 muammo, 13 tuyuq, 10 muxammas, 5 musaddas, 4 tarjiband, 4 mustazod, 1 tadan musamman, tarkibband, soqiynoma va masnaviysi kiritilgan. Shoир merosining umumiyligi adadi shumi? Ushbu savolga javob topish maqsadida Navoiy nasriy asarlarining ayrimlariga murojaat qildik va ushbu asarlarda shoирning she'riy janrlardagi turli tuman asarlari borligiga guvoh bo'ldik .

Alisher Navoiy nasriy asarlarida ham o'zining betakror uslubini va she'riy san'atlarni samarali qo'llagan. Alisher Navoiy asarlarida nasrda ham, nazmda ham san'atkorona uslub keng qo'llanilgan. Uning nasriy asarlarida ishlatilgan she'riy san'atlar o'ziga xos uslub va ohang yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular asarga nafosat bag'ishlab, fikr va his-tuyg'ularni ta'sirchanroq ifodalashga xizmat qiladi. Navoiyning nasriy asarlarida ishlatilgan ba'zi san'atlar quyidagilardir:

Navoiy o‘z asarlarida quyidagi she’riy san’atlarni qo‘llagan:

1. Tashbeh (o‘xshatish) – bir narsani boshqa bir narsaga o‘xshatish orqali mazmunni kuchaytirish. Masalan, Navoiy "Lison ut-Tayr" asarida o‘rmonni gulzorga o‘xshatib, majoziy ma’noni chuqurlashtirgan.
2. Isti’ora (metafora) – narsa yoki hodisani boshqacha nom bilan atab, tasvirni jonlantirish. U, masalan, "Farhod va Shirin"da muhabbatni "olov" yoki "yorug“lik" deb tasvirlaydi.
3. Tazod (qarshi qo‘yish) – bir-biriga qarama-qarshi tushunchalarni yonma-yon qo‘yib, tafovutni kuchaytirish. Navoiy inson qalbining yaxshi va yomon tomonlarini tasvirlashda ko‘p tazodlardan foydalanadi.
4. Tashxis (personifikatsiya) – jonli va jonlanmagan narsalarni jonlantirib, inson sifatlarini berish. Masalan, shamlarga insonga xos his-tuyg‘ular berish orqali.
5. Talfit va tarteb (bir xil tovushlarning takrori) – musiqa yaratish maqsadida qo‘llaniladi. Bu usul orqali Navoiy nasriy matnlarda ham ritm yaratadi.
6. Ijodiy majoz – so‘z va iboralarni boshqacha ma’noda qo‘llash orqali chuqur ma’nolar yaratish, bu esa uning uslubiga go‘zallik va qiziqish bag‘ishlaydi. Alisher Navoiyning nasriy asarlarida yuqoridagi san’atlardan foydalanish o‘ziga xos tasviriylikni va chuqur falsafiy ma’noni yaratishga xizmat qiladi.
7. Tajnis (omonim so‘zlar o‘yini) san’ati bir xil yoki o‘xhash talaffuz qilinadigan, lekin turli ma’nolarga ega bo‘lgan so‘zlarni yonma-yon qo‘llash orqali ma’noni yanada boyitadi. Bu usul Navoiy uslubiga xos bo‘lib, uning nasr va nazmida keng uchraydi.
8. Iyhom(ohangdoshlik) she’riy san’ati asar ichida so‘zlar ohangida uyg‘unlik yaratishga qaratilgan. Bu usul g‘azal va qasidalar bilan birga nasriy asarlarda ham asarning musiqiyligini oshiradi.
9. Talmeh san’ati Navoiyda tarixiy yoki diniy voqealarga ishora qilib, asarning ma’no va mazmunini boyitishda qo‘llaniladi. Bu san’at orqali o‘quvchiga umumiy tushuncha yoki eslatma beriladi. Navoiy nasrida qo‘llangan she’riy san’atlar uning asarlariga betakror ohang va yuksak estetik ma’no bag‘ishlab, asarlarni o‘quvchilar uchun yanada ta’sirchan va unutilmas qiladi. Bu san’atlar Navoiy ijodida falsafiy mazmun va go‘zallikni chuqurroq ifodalashda katta ahamiyat kasb etadi.
10. Tavzi’ (ajratish) Tavzi’ san’ati gapning ma’nosini aniqroq yetkazish uchun, bitta fikrni ikki yoki undan ortiq jumлага ajratish orqali ta’sir kuchini oshirishdir. Navoiyning nasrda ham, nazmda ham bu usulni ishlatishi uning asarlarini yanada samarali va chuqur ifodali qiladi.
11. Kinoya san’ati biror narsani bilvosita ishora qilish orqali ifoda etiladi. Navoiy o‘z asarlarida kinoyadan foydalanib, shaxsiy yoki ijtimoiy kamchiliklarni o‘quvchiga sezdirish bilan birga, chuqur mulohazaga chorlaydi. Bu usul o‘quvchini hamda muayyan masalalar ustida o‘ylashga undash maqsadida ishlatiladi.
12. Mubolag‘a (kattalashtirish) san’ati Navoiy asarlarida voqealarga yoki tushunchaning ta’sirchanligini oshirish uchun ishlatiladi. Mubolag‘a orqali shoir o‘z tuyg‘ularining

jo'shqinligini, voqealarning kuchli ta'sirini va ulkanligini tasvirlaydi. Bu san'at ko'pincha mardlik, go'zallik, sadoqat kabi mavzularda qo'llaniladi.

13. Ramziy tasvirlar Istiora san'ati bilan birga ramziy tasvirlar Navoiyning nasriy asarlarida ham uchrab, ular orqali muallif o'quvchi tushunchasini kengaytiradi va asarlarning ichki falsafiy qatlamlarini ochib beradi. Masalan, "gul" va "bulbul" ramzlari sevgi va ishq timsoli sifatida, "yor" esa ilohiy sevgi ramzi sifatida ishlatiladi.

14. Iqtibos Navoiy ko'pincha Qur'on oyatlari yoki hadislarning mazmunidan iqtibaslar keltiradi. Bu usul o'z zamonasidagi keng e'tiqod va dunyoqarashni aks ettirib, asarning ruhiy va falsafiy jihatlarini yanada chuqurroq qilib beradi. Iqtiboslar bilan Navoiy o'z fikriga dalil keltiradi va o'quvchini bilim va o'z e'tiqodlarini yanada mustahkamlashtirishga undaydi.

15. Radof (ohangdoshlik) Navoiy nasrida ham radof san'ati ya'ni bir xil so'z yoki iboralarni takrorlash orqali asarda o'xshashlik va musiqiy ohang yaratiladi. Bu usul o'quvchining diqqatini o'sha fikrga qaratish va uni yodda saqlashda yordam beradi

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiyning nasriy asarlari, jumladan, "Mahbub ul qulub", "Munshaot", "Tarixi mulki ajam", "Holoti Sayid Hasan Ardasher" singari asarlarida ruboiy, fard, qit'a, masnaviy janrlaridagi bir necha o'nlab baytlar qo'llanilgan.

### Xususan:

1 "Mahbub ul qulub "da 10 ta ruboiy, 11ta qit'a, 12 ta masnaviy, 68 ta mustaqil bayt, 4 ta shoir "nazm" deb izoh bergen she'r mavjud.

2 "Munshaot" Navoiyning maktublardan tuzilgan asari bo'lib, unda 75 ta ruboiy, yana bir necha masnaviy keltirilgan.

3 "Tarixi mulki Ajam" –tarixiy asar. Unda 68 ta podshoh haqida ma'lumot berilgan. Asarda shoirning o'zi "she'r" deb izoh bergen to'rtliklarning umumiyligi soni 47 ta. Diqqat qilmagan kishi barini to'rtliklar deb hisoblaydi. Aslida unday emas. Qofiyalanishiga e'tibor qilinsa, ana shu 47 ta to'rtlik hammasi a-a-b-b tarzida qofiyalangan. Shundan aytish mumkinki, bu baytlar masnaviylardir. Yana 2 o'rinda 1 baytdan a-a tarzida qofiyalangan bayt bor. Asarda 3 ta masnaviy :biri 8 bayt, ikkinchisi 10 bayt, uchinchisi 50 baytdan iborat. Jami she'riy parchalarning umumiyligi miqdori :232 bayt, 464 misra

4 "Holoti Sayid Hasan Ardasher" - Navoiyning memuar asarlari sirasiga kiradi. Asarda 2 ta ruboiy, shoir "bayt" deb izoh bergen 8 bayt, "fard" deb izoh bergen 1 bayt, "nazm" deb izoh bergen 2 bayt, shuningdek, izoh berilmagan 9 bayt, 1 ta ikki baytdan iborat Ardasher vafotiga bag'ishlangan forsiy tarixiy keltirilgan. Izoh berilmagan baytlarning uchtasi Mavlono Lutfiy qalamiga, bittasi Mavlono Muqimiyligiga mansub. Qolganlari Navoiyning o'z baytlari. Ushbu raqamlarning o'zi ham Navoiy nasrini, xususan, "Mahbub ul-qulub", "Munshaot", "Tarixi muluki Ajam", "Holoti Sayid Hasan Ardasher" singari asarlarini lirik janrlar nuqtai nazaridan o'rganish maqsadga muvofiq ekanini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy asarlarining deyarli barchasida pand-nasihat, o'git, axloq-odobga doir fikrlarni uchratish mumkin. Xususan, "Nazm ul-javohir"dagi ruboiyilar boshdan-oyoq kalomi jomi' san'ati asosida yozilgan. Masalan: Har kimki habibing o'lsa evrul boshig'a, Mahvo'l yuzig'a, jonne fido qil qoshig'a, Tosh ursa, Navoiy g'azallarining aksariyatida axloqiy yoki ijtimoiy ruhdagi baytlar uchraydi. Shuningdek, to'laligicha ijtimoiy-axloqiy masalalarga bag'ishlangan ko'plab g'azallar mavjud. Masalan, Shoirning quyidagi matla'li g'azali zamon va zamona ahlidan shikoyat asosiga qurilgan:

Topmadim ahli zamon ichra bir andoq hamdame

Kim, zamon osibidin bir-birga aytishsoq g'ame.

(Navodir ush-shabob, 576-g'azal) Kalomi jomi' san'ati Alisher Navoiyning faqat lirik she'rlarida emas, balki "Xamsa" tarkibidagi dostonlar, "Lison ut-tayr" dostoni va boshqa nasriy asarlar tarkibidagi she'riy parchalarda ham qo'llanilgan.

Navoiy o'zining nasriy asarlarida ham she'riy san'atlardan keng foydalanib, badiiy go'zallik va ma'no teranligini oshiradi. U asarlarini yanada ta'sirchan, o'quvchilar qalbiga yaqin qilish maqsadida she'riy san'atlardan juda o'rinali va nozik foydalangan. Bu san'atlar orqali o'quvchi faqat syujetni emas, balki fikrning chuqurligini, uning ortida yashiringan ramziylik va falsafiy ma'nolarni ham his qilishi mumkin.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov, Navoiyshunoslik(darslik) Toshkent 2018
2. Yusupova.D O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi Akademnashr,-Toshkent.,2013.
- 3.Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub, Munshaot, Vaqfiya 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1998. 300-b.
4. O'zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik Toshkent: Fan, 1977. — 462 b
5. www.ziyouz.com sayti.
- 6 Sodiqov, A. Alisher Navoiy asarlarida badiiy uslub va she'riy san'atlar. Toshkent: Sharq, 2005.
- 7 Qayumov, T. Alisher Navoiy badiiy merosi va uning o'ziga xosliklari. Toshkent: Fan, 1991.